

**TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

***Aytmuratova Ulbike Jalgasovna***

*Qoraqalpoq davlat universiteti «Moliya» kafedrasi iqtisodiyot fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich***

*Qoraqalpoq davlat universiteti iqtisodiyot fakul'teti talabasi*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada masofaviy bank xizmatlarining nazariy asoslari o'rganilib, tijorat bank tomonidan masofaviy xizmatlar ko'rsatish jarayoni tahlil qilingan. Maqolada tahlillarga asoslangan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

***Kalit so'zlar:*** tijorat bank, masofaviy xizmat, bank transformatsiyasi, skoring, kredit, jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar, foiz, internet-banking, «Bank-mijoz» tizim, overdraft.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda bank xizmatlarini sifatini va ko'lамини oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Lekin, jahonda bo'layotgan o'zgarishlar, globallashuv jarayoni, raqobatbardoshlikni haddan ziyyod rivojlanishi, tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish, mijaozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish zaruratiniz yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishga, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Respublikada «yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligaciylar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lамини yanada kengaytirish, ilgor axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish» [1] vazifasi belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda tijorat banklarida masofaviy bank

xizmatlarini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish, banklar tomonidan masofaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bogliq mezonlar bank strategiyasida o'z ifodasini topmaganligi, banklar xizmat turlari hamda sifatida jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganligini, chet el banklari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatilganligini hamda xorij tajribalarini O'zbekistonda ijobjiy qo'llashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish yo'nalishlari bilan bogliq ayrim masalalar bir qator mahalliy va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'r ganilgan.

### **1-jadval**

#### **Iqtisodiy adabiyotlar va qonun hujjatlarida masofaviy bank xizmatlariga oid qarashlar<sup>1</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Muallif</b>	<b>«Masofaviy bank xizmatlari» atamasiga berilgan ta'rif</b>
1	I.I.Biychkova [2]	Tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini aksariyat hollarda mijozning bankga bormasdan kompyuter texnologiyalari va telefon tarmog'i orqali topshirig'iga asosan amalga oshirilishi
2	O.I. Lavrushin [3]	banklarning masofaviy xizmatlari bu bankning o'z mijozlari (jismoniy va yuridik shaxslar)ga turli bank operatsiyalariga masofadan turib ruxsat berish bo'yicha kompleks xizmatlaridir
3	E.P.Jarkovskaya [4]	bank masofaviy xizmatlari bank ofisida aynan bank xodimi va mijoz ishtirokida emas balki uyda, ish joyida, umuman mijozga qulay bo'lgan joyda xizmat ko'rsatishdir

---

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

4	III.Абдуллаева [5]	Axborot texnologiyalarining rivojlanishi internetda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini kengaytirayotganligi, ilg'or firmalar va tijorat banklari bugungi kunda bu imkoniyatdan foydalangan holda mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish, elektron pullar hisobini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'layotganligiga, mamlakatimiz tijorat banklarida bank hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarishni rivojlantirish kunning muhim masalalari
5	Z.T.Mamadiyarov [6]	bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi, ikkinchidan, bank operatsiyalarning avtomatlashtirilgani bilan bog'liq

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda masofaviy bank xizmati –bu bank xizmatlarini masofadan turib boshqarish, bank ofisiga bormasdan, mijoz va bank xodimlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan, telekommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda, ko'pincha mobil telefon yoki noutbukdan foydalangan holda ko'rsatish deb ta'rif berish mumkin.

Bank tizimi ham zamon talablariga muvofiq axborot-kommunikaciya texnologiyalarini keng joriy qilishni davom ettirmoqda va shu tariqa ko'plab bank xizmatlari avtomatlashtirilmoqda. Endi deyarli barcha bank xizmatlarini mobil telefon yoki maxsus qurilmalar yordamida bir lahzada olish mumkin. Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 12 may kuni tasdiqlangan «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»da [7] zamonaviy axborot-kommunikaciya texnologiyalarini keng

joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Zamonaviy axborot-kommunikaciya texnologiyalarini joriy etish sohasida tijorat banklarining korporativ transformaciyasi jarayonida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to‘lovlarning soni va qamrovini kengaytirish;
- skoring, masofadan turib identifikasiyalash va kredit konveyeri tizimidan keng foydalanish;
- bank axboroti va tizimlarning axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sektorida yangi koncepciyalar va texnologiyalarni keng joriy etish (fintek, raqamli banking).

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda. Endi biz masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining o‘zgarish dinamikasini ko‘rib chiqamiz.

### 2-jadval

#### **2020-2024 yillarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni<sup>2</sup>**

---

<sup>2</sup> Manba: Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)) asosida tuzilgan

Sana	Jami	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar
1	2	3	4
01.01.2020 y.	10 153 458	691 008	9 462 450
01.01.2021 y.	14 571 094	822 518	13 748 576
01.01.2022 y.	20 203 384	968 580	19 234 804
01.01.2023 y.	30 000 914	1 157 045	28 843 869
01.02.2023 y.	32 664 728	1 162 150	31 502 578
01.01.2024 y.	44 099 600	1 339 609	42 759 991
01.04.2024 y.	42 969 855	1 386 348	41 583 544

2-jadvalda 2020-2024 yillarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni yildan-yilga ortib borishi ko‘zatilmoqda. 2020 yili 1-yanvar xolatiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni jami 10 153 458 tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yil 1 aprel ma’lumotlari buyicha 42 969 855 tashkil qildi, ya’ni 2020 yilga nisbatan 3 barobarga o‘sgan. Buningi kunda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 1 386 348 tashqil qilib, 2020 yilga nisbatan 2 barobarga, jismoniy shaxslar esa 41 583 544 tashkil qilib, 2020 yilga nisbatan 5 barobarga o‘sgan.

Xususan, hozirgi kunda O’zbekiston bank tizimida bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatishda mobil banking, internet banking, bankomat va turli ilovalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Foydalanishi sodda bo‘lgan ushbu uskunalar bugungi kunda mijoz va cassir o‘rtasidagi an’anaviy muomalaga chek qo‘yib, o‘ziga xos raqamli platforma vazifasini o‘tamoqda. Hozirgi paytda ushbu tashqi vositalardan nafaqat naqd pul yechib olish, kredit olish, depozit qo‘yish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo‘yicha turli to‘lovlarни amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o‘rinlikni, mijozlar istalgan vaqt mobil banking, 24/7 rejimida ishlovchi smartofislari, Click, Oson, Payme va boshqa ilovalardan 7/24, ya’ni 7 kunu 24 soat foydalana oladilar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda banklar an'anaviy bank xizmatlarini masofadan identifikatsiya qilish imkonini, raqamlashtirish va bu yo'nalishda innovatsiyalarni qo'llamas ekan ular daromadini va mijozlar sonini keskin oshirib borish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin. Xususan, O'zbekiston bank tizimi bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish tizimlarini yanada rivojlantirish, aholining bunday mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabini o'rghanish va shundan kelib chiqib, bank strategiyasiga tegishli o'zgartirishlarni kiritish bankning mazkur bozor segmentida barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga 2018-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2019-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasi.
2. Бычкова И. И. Технологические инновации в продаже банковских продуктов / И. И. Бычкова, О. Г. Семенюта // Современные технологии управления. – 2016. – №3 (63). – С. 55-62
3. Лаврушин О. И. Деньги, кредит, банки: Учебник / Под ред. засл. деят. науки РФ, д-ра экон. наук, проф. О. И. Лаврушина. -М.: КНОРУС, 2016.- 576 с.
4. Жарковская Е. П. Банковское дело. М.: ОМЕГА-Л. 2014. 413 с.
5. Abdullayeva Sh. Z.. Bank ishi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 535-536 bb.
6. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2019. 56 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 10.06.2022 y., 06/22/152/0507-son.

<https://lex.uz/uz/docs/4811025>

8. Daniyarov, K., Baymuratova, Z., Aytmuratova, U., Dauletalieva, A., & Ospanova, F. (2023). Financial support for agricultural business subjects in the innovative development of the economy. In E3S Web of Conferences (Vol. 389, p. 09054). EDP Sciences.
9. Айтмуратова, У. Ж. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ ПРЕДПРИЯТИЯ. In НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 51-54).
10. Aytmuratova, U. J., & Sabirbaev, N. (2022). IJTIMOIY SOHANI QO'LLAB-QUVVATLASHDA DAVLAT BYUDJETINING AHAMIYATI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA). *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 314-320.